

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.Sh.Nomozov	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
U.R.Sobirova	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	332
A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari	335
I.Rizayev	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
R Mardonov	
Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot	346
N.X.Xakimov B.A.Nabiyev	
O'rta osiyoda hozirgi ekloviy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
X.Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil)	358
H.Muhamadiyev	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida	365
D.B.Sharipov	
Tinchlikni ta'minlashning innovasion omillari	370
X.R.Xolidaxon	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

SIYOSAT

A.Z.Ismayilov	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari	378
J.Sultonov	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish	384

TARIX

B.Usmonov, D.A.Madalimov	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida	392
M.Sh.Muzaffarjon	
O'zbekistonda turizmning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari)	397
B.M.Abdullayev	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli	405
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
D.M.Turdiyeva	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
A.A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir	425
A.A.Yo'ldashev	
XX asrning 20-yillarida ozarbayjonda ta'lim olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	436
P.P.Norbo'tayev	
Epos va din	440
Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili.....	446
J.Sh.Museyibzoda	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
M.R.Umirzakova	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

ZIYORAT TURIZMI SOHASIDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI VA IMKONIYATLARI

ПОЛОЖЕНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО
ТУРИЗМАPOSITION AND OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF PILGRIMAGE
TOURISMAbdiyev Alimardon Chorshanbiyevich¹, Xolyorova Barno Ibragimovna²¹Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich– Qarshi davlat universiteti “Turizm va marketing”
kafedrasida katta o‘qituvchisi, i.f.n²Xolyorova Barno Ibragimovna

– Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ziyorat turizmi rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari ko‘rib chiqilgan bo‘lib unda sohani rivojlantirishda klasterli siyosat va integratsiyalashgan marketing konsepsiyasi ilgari surilgan. Natijada xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan ziyorat turizmi sohasida aloqalar o‘rnatishi, mamlakatimizga turistlar oqimining kirib kelishini ko‘paytirish, turistlar xavfsizligini ta‘minlashni tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy yuriqlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация

В данной статье были рассмотрены теоретико-методологические основы развития паломнического туризма, а также выдвинута концепция кластерной политики и комплексного маркетинга в развитии отрасли. В результате показаны организационно-экономические шаги, регулирующие налаживание отношений с международными организациями и зарубежными странами в сфере паломнического туризма, увеличение потока туристов в нашу страну, обеспечение безопасности туристов.

Abstract

This article discusses the theoretical and methodological foundations of the development of pilgrimage tourism, which promotes the concept of cluster policy and integrated marketing in the development of the industry. One of the important factors in the development of tourism in our country is peace, stability, mutual understanding and solidarity.

Ключевые слова: кластер, паломнический туризм, диверсификация, предпринимательство, стандарт, кооперация, опыт, правовая база, безопасность, экономико-правовая база.

Kalit so‘zlar; klaster, ziyorat turizmi, diversifikatsiya, tadbirkorlik, standart, hamkorlik, tajriba, huquqiy asoslar, xavfsizlik, huquqiy-iqtisodiy baza.

Key words: cluster, tourist, tourism, diversification, entrepreneurship, standard, partnership, experience, legal framework, security, legal and economic system.

Kirish

Bizga ma‘lumki, O‘zbekiston o‘zining boy madaniy va ma‘naviy merosi, memoriy va tasviriy san‘ati, tarixiy obidalari bilan hamda ko‘plab dunyoga taniqli mashhur va buyuk ajdodlarimiz dunyo olimlari va sayyohlarini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Bu o‘z navbatida xalqaro turizm bozorlaridagi o‘zimizga xos o‘rnimiz va nufuzimizni ko‘rsatadi. Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida Respublikamiz Prezidentining tashabbuslari bilan O‘zbekistonda ilk bor 2019-yil 21-23 fevral kunlari Buxoro shahrida ziyorat turizmi bo‘yicha birinchi xalqaro forum o‘tkazildi. Forum doirasida Malayziya muftiysi Perlis Mohd Asri bin Zaynul Abidin O‘zbekistonning faxriy ziyorat turizm elchisi etib belgilandi. Bu o‘z navbatida millatlarni, xalqlarni, dinlarni o‘zaro hamjihatlikka, inoqlik va bag‘rikenglikka chaqiradi. Sohaning rivojlanishida mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Keyingi yillarda mamlakatimizning ziyorat turizmi borasida jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nazariy yondashuvlar asosida tahlil etib borilganligini e‘tirof etish o‘rinlidir. Ta‘kidlash joizki 2019-yil 5-yanvarda 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, hamda 2019-yil 18-iyul kuni “Turizm to‘g‘risida” gi qonunning yangi tahrirda 557 qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari bag‘ishlangan yig‘ilishda “O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki, ona zaminimizda butun dunyoga ma‘lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma‘naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta” – deb ta‘kidlagan edi. Global iqtisodiy innovatsion o‘zgarishlar sharoitida ziyorat

turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari ochib berish hamda uni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siësiy jihatdan qulay joyda joylashgan O'zbekiston nafaqat o'zining boy tarixi va madaniy yodgorliklariga egaligi bilan, balki muqaddas qadamjolar maskani sifatida ham jahonga mashhurdir. O'zining ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida vatanimiz siyosiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, geosiësiy salohiyati jihatidan dunyo tamadduniga katta hissa qo'shib kelgan. Shuningdek, mamlakatning Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, bu yerda madaniyatlar to'qnashuvining yuz berishiga, ilm-fan yutuqlarining almashinuviga, mamlakatlar orasidagi yangiliklarning o'zaro keng yoyilishiga imkon qadar xizmat qilgan. O'zbekistonda qadimiy obidalarining, ulug' ilm sohibi va islom diniga o'zining ulkan hissasini qo'shgan shaxslar ziyoratgohlarining ko'pligi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmon bo'lgan sayyohlarni ziyorat maqsadida yurtimizga qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda. Respublikada qadim tarixga ega, bir necha tuzumlarni ko'rgan va shunday sharoitda ham o'z qadr-qimmatini, go'zalligini saqlab qolgan obidalar sayyohlarda ajib bir hayrat hissini shakllantirmoqda. Zero, O'zbekiston sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyoning 10 ta yetakchi mamlakatlari qatoridan o'rin egallagan. Respublikada turistlarni o'ziga jalb qiladigan 7,4 madaniy meros ob'ektlari mavjudligi hamda ularning 209 tasi YuNESKO tashkiloti ro'yxatidan o'rin egallaganligi mamlakatimiz turistik salohiyatining yuqoriligi va imkoniyatlarining serobligiga borib taqaladi.

TAHLIL

Mamlakatimizda turizm sohasining muhim yo'nalishi deb qaralayotgan, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun din bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar, o'ziga xos diniy qadriyatlar va an'analarning mavjudligi yetarli emas. Bu yo'nalishda sayëhlarning ulkan oqimini hosil qilishdagi ba'zi bir kamchiliklarning mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu kamchiliklarga, xususan, mehmonxonalar yetishmasligi, arzon va qulay infratuzilmaning to'liq mavjud emasligi, erkin axborot olish va internetdan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, turmahsulotlarning sifati pastligi va jozibador emasligi tufayli sayyohlarni o'ziga yetarli darajada jalb qila olmayotganligi va boshqalarni kiritish mumkin. Turistlarni jalb etish uchun qulay turistik infratuzilmani shakllantirish, yaxshi reklama, jozibadorlikni namoyish etuvchi tashviqot ishlarini olib borish, viza rejimini yanada erkinlashtirish, aeroport va mehmonxonalarda ibodat qilish uchun shinam sharoitlar yaratish kerak. Misol uchun, Malayziya dunyoning ko'plab davlatlari fuqarolari uchun viza talabini olib tashlaganligi sababli sayyohlar ko'plab mamlakatlardan sayyohlar oqimi oshib bormoqda. Hozirgi statistik ma'lumotlarga asosan, jahonda 1,6 mlrd.dan ortiq islom diniga e'tiqod qiluvchilar bo'lib, ular dunyoning deyarli barcha mintaqasida yashaydi. Xususan, ko'p sonli musulmon aholiga ega bo'lgan Indoneziya (260 mln.), Malayziya (32 mln.), Pokiston (150 mln.) singari mamlakatlarning fuqarolarini ziërat turizmi maqsadida Qadimiy Turkiston zaminining bo'yuk qadamjolari shuningdek Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Termiz va mamlakatimizning boshqa shaharlarida joylashgan muqaddas qadamjolariga jalb etish O'rta Osiyoda O'zbekiston uchun ulkan imkoniyat hisoblanadi. Ushbu shaharlarda joylashgan muqaddas qadamjolar, avliyolar va ulamolarning maqbaralari, masjid va madrasalar, qadimiy 558 qo'lyozmalarni ko'rsatish xorijiy sayyohlar qiziqishlarining ortishiga, sayyohlar oqimining kengayishiga, natijada mamlakatimiz turizm salohiyatini oshib borishiga imkoniyatlar eshigi ochilishini ta'minlaydi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan bosqichma bosqich majmualari qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilinmoqdaki, ular jumlasiga 2018-yilda turizmga doir 4 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 6 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 1 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 15 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori; 2019-yilda 1 ta O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 5 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 5 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatlar bilan sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish, turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi, ichki turizmni yanada rivojlantirishning son sanoqsiz imkoniyatlari yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi —O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi 5326-sonli farmoniga ko'ra, Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiyalik fuqarolar uchun 30 kunlik muddatga viza rejimi joriy etildi. Shuningdek, bugungi kunda MDH tarkibidagi to'qqiz mamlakat fuqarolari vizasiz rejimdan

FALSAFA

foydalanmoqdalar. 2018-yil 1-iyuldan elektron 2 vizalar joriy qilindi. Jahon tajribasidan kelib chiqib bu tizimni yanada soddalashtirib va ichki va tashqaridan turistlar oqimi tartibini doimiy ravishda e'tiborli bo'lgan holda olib borishni talab etmoqda. Ma'lumki, 2019-yilning 5-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5611-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra, —2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda turizm sohasida qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib boriladigan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infra tuzilmasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilishini o'zi bu katta yutuqdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahsinga sazovordir. Xususan, 45 davlat fuqarolari uchun yurtimizda 30 kungacha vizasiz bo'lish, 76 davlat fuqarolari uchun yengillashtirilgan tartibda elektron viza olish, 101 mamlakat fuqarolari uchinchi davlatga borishda O'zbekistonga 5 kungacha vizasiz kirishi kabi qator imtiyozlar joriy etildi. Bu esa xorijiy sayyohlar safi tobora kengayishiga sabab bo'lmoqdaki, natijada mamlakatimizga islom diniga e'tiqod qiluvchi va musulmon aholiga ega bo'lgan ko'plab davlatlardan musulmon turistlar tashrifining oshishiga imkon to'g'ulmoqda. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar qisqa muddatda o'z samarasini ko'rsatmoqdi. Shu jumladan, viza 515 rejimidagi o'zgarishlar, O'zbekistonda bo'lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibining soddalashtirilishi, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralarning ko'rilishi mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini o'tgan yillarga nisbatan oshishiga, shuningdek turizm xizmatlari eksportidan tushadigan daromadlar hajmini oshishiga olib kelmoqda. 559 e'tirof o'rnida aytish mumkinki, birgina Malayziyaliklarning taklifiga ko'ra, mamlakatimizda ziyorat turizmini yanada jadallashtirish maqsadida, Kuala Lumpur-ToshkentJidda yo'nalishi bo'yicha avia qatnovlarni ochish masalasi ko'ndalang qo'yildi. Chunki har yili 250 ming malayziyaliklar uchun Umra safariga borishdan oldin yoki safardan keyin, albatta, O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish imkoni paydo bo'ladi. Bu holat esa viza olish jarayonini yanada yengillashtirishni taqozo etgan holda har yili 250 mingdan ortiq turist kelishi hamda shunga mos ravishda daromad manbaiga erishish demakdir. Shu boisidan ham Malayziya sayyohlik va sayohat agentligi assotsiatsiyasi bilan yanada yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish kechiktirib bo'lmaydigan holdir. Bizga ma'lumki, Malayziya sayyohlik va sayohat agentliklari assotsiatsiyasi va O'zbekiston Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi o'rtasida anglashuv memarandumi imzolandi. Agarda O'zbekiston ziyorat turizmi agentligi ziyorat turizmiga doir qiziqarli hamda azronlashtirilgan narxdagi tur paketlarini taqdim etsa, assotsiatsiya yuqoridagi takliflarni Malayziya hamda yaqin atrofdagi qo'shni davlatlar Indoneziya, Singapur mamlakatlardagi mijozlarga sotishda amaliy yordam berishlarini qayd etishdi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ushbu assotsiatsiyaning yilda 4 maratoba nashr etiladigan, 3200 ta turizm sanoati professionallariga yetkaziladigan jurnalida O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati haqidagi maqolalarni, reklama-targ'ibot materiallarini chop etish bo'yicha hamkorlik shartnomasi taklif sifatida qabul qilindi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sayehlar qisqa muddat ichida ko'plab va qadimiy joylarni ko'rishni istaydi. O'zbekistonda esa vaqt chegaralangandir. O'zbekistonda kafe va restoranlar 23:00 da yopiladi. Agarda restoranlarni 24 soatlik ish vaqtiga o'zgartirilsa, bu muammo o'z yechimini topgan bo'lar edi. Turistlarga mehmonxonadan vaqtincha ro'yxatdan o'tish ham ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda hamda faqatgina 5 yulduzli mehmonxonalarga ko'proq ahamiyat berilmoqda. Agarda biz 4-5 yulduzli mehmonxonalarga va 2-3 yulduzli otellarga ham birdek e'tibor berilsa, ularda turistlar uchun qulayliklar yaratilsa, bu ham turistlar sonining oshishiga sabab bo'ladi. Hamda yurtimizdagi mehmonxonalarda musulmon sayyohlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilishi mehmonxonalarning nufuzini oshishiga, sayyohlarning qiziqishining ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sayyohlarning uqalash xizmati, piyoda yurishni talab etadigan joylarning ko'pligi uchun turistlarga qisqa masofalarga xizmat ko'rsatuvchi servis xizmatlarini ham joriy etish lozim. Eng asosiysi kelgan mehmonlarni, ya'ni sayyohlarni barcha servis xizmatlarida ochiq chehra bilan kutib olish hamda ularni uzoq muddat kuttirib qo'ymaslik uchun xodimlarning tezkorligini oshirish va o'sha xizmatning texnik salohiyatini yuqori darajaga olib chiqishni talab etadi.

Mamlakatga xorijiy turistlarni jalb etishning eng asosiy omillaridan yana biri bu – tarixiy obidalarni asli holicha saqlashdir. Yevropalik sayyohlar ham, musulmon davlatlari turistlari ham zamonaviy osmono‘par binolarga to‘la mamlakatlardan kelishadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos jihati tarixiy obidalar o‘zining go‘zal, qadimiy ko‘rinishini saqlab qolganligidir. Tarixiy obidalarga limmo-lim bo‘lgan qadimiy shaharlarimizda obidalardagi yozuvlar katta ma‘no-mazmunga egadir. Bu binolarning uzoq o‘tmishga ega ekanligi, qanday qurulish uslublarida bunyod etilganlini hamda obidalardagi naqshlarning uslublari va bu naqshlar orqali qanday ma‘no-mazmun yashiringanligi haqida chet tillaridagi tarjima bukletlarini tayyorlash sayyohlarni yanada ko‘proq qiziqishini oshishiga olib keladi. Ma‘lumki, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha Qubbat-ul isloml maqomiga sazavor bo‘lgan Buxoro shahrida tamal toshi qo‘yildi, deyishimiz mumkin. 2019-yil 21-23 fevral kunlari qadim Sharq durdonasi bo‘lgan Buxoro shahrida ziyorat turizmi bo‘yicha birinchi xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning ko‘plab davlatlaridan din ulamolari, muftiylar, 560 nufuzli xalqaro tashkilotlar a‘zolari, sayyohlik kompaniyalari, tur kompaniyalari operatorlarining vakillari qatnashiga erishildi. Ushbu forumda qatnashuvchilar O‘zbekistonning ziyorat turizmidagi salohiyati bilan yaqindan tanishdi hamda yurtimizni ziyorat turizmining yangi markaziga aylantirishda yaqin hamkorlik qilish va o‘zaro madaniy aloqalarni rivojlantirish borasida fikr mulohazalar almashishdi. Shuningdek, istiqbolda sayyohlar oqimining keskin ko‘payishi hisobga olingan holda, joriy yilda 60 ga yaqin mehmonxonalar qurish, 20 dan ortiq restoranlar, bir qancha istirohat bog‘lari barpo etish va sayilgohlar qurulishi haqida muhokamalar bo‘lib o‘tdi. 2019-yilda taqdim etilgan Jahon halol turizmi reytingiga ko‘ra, O‘zbekiston Top-20 ro‘yxatidan o‘rin olgan. Halol turizm ziyoratchilarini qabul qiluvchi Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlari orasida esa Top-10 ro‘yxatiga kiritilgan⁶. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ziyorat turizmini rivojlantirishda sayyohlarning talab va takliflarini hisobga olish lozim. Talablarga qarab ehtiyojlar qondiriladi. Turistlar oqimiga mos, shart-sharoitlarga ega bo‘lgan mehmonxona va restoranlarning sonini yanada oshirish hamda mehmonxonalar jihozlarning safidan musulmon sayyohlar uchun Qur‘oni Karim, joynamoz va qibla ko‘rsatkichlarining o‘rin olishini ta‘minlash zarur. Aeroportdagi nohush vaziyatlarni va turistlarni kuttirib qo‘yish hollarini bartaraf etish lozim. Ziyorat turizmi yo‘nalishida asosan islom diniga e‘tiqod qiluvchi turistlar tashrifi yuqoriligi inobatga olgan holda barcha turistik xizmat va mahsulot turlariga —Halol standartill talablarini joriy etish lozim hamda katta yo‘l bo‘ylarida, turistik manzillar atrofida masjidlar sonini tobora ko‘paytirish zarur. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar, turizm rivojlangan davlat bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va ularning bu sohadagi ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirishimiz kerak. Reklama agentliklari bilan chet ellarda ham targ‘ibot ishlarini amalga oshirmog‘imiz darkor. Yurtimizda qadimdan qadrlanib kelinadigan qo‘l mehnati, uy hunarmandchiligini rivojlantirib, bu yo‘nalishda faoliyat olib boradigan tadbirkorlarga ma‘lum bir erkinliklar va yengilliklar berish lozim. Turistlarga mos keladigan, arzonlashtirilgan narxlarga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirsak, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar aziz avliyolarning ziyoratgohlari haqida chet tillaridagi tarjima bukletlarini tezroq va ko‘proq miqdorda tashkil etsak hamda bu obidalarining qadimiyligini o‘z holicha saqlasak, ularning sur‘ati tushurilgan suvinerlarni ixcham shakllarda yarata olsak, malakatimizga tashrif buyuradigan turistlar tashrifini oshirilishiga sazovor bo‘lishlik nasib etadi degan umiddamiz va hk.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. 2016 yil 2 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidallgi PF-5611-sonli Farmoni. 2019 yil 5 yanvar. 561
4. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2018 yil yanvar-dekabr. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2019. B. 306.
5. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoniga ilova.
6. Travel & Tourism Economic Impact 2018 Uzbekistan//World Travel & Tourism Council 2018 march.
7. <http://www.uzbekistan.at/ru/node/89>